



## SOCIO-PHILOSOPHICAL TRANSFORMATION OF RADICALISM AND TERRORISM IN THE CONTEXT OF VIOLENCE

*Jahongir Boybutayev*

*PhD, Associate Professor*

*Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** radicalism, radicalization, extremism, terrorism, violence, collective identity, political alienation, ideological legitimacy, social transformation, prevention of terrorism.

**Received:** 21.06.26

**Accepted:** 22.06.26

**Published:** 23.06.26

**Abstract:** This article analyzes the transition from radicalism to terrorism as a socio-philosophical transformation of violence. It explores the essence and meaning of the concepts of radicalism, radicalization, extremism, and terrorism, as well as their interconnection. The article argues that terrorism is not an independent phenomenon, but rather a complex social process that transforms radical ideas into extremist activities and systemic violence. It also examines the role that the radicalization of collective identity, the legitimization of violence, and political alienation play in the formation of terrorism.

## RADIKALIZ HAMDA TERRORIZMNING ZO‘RAVONLIKDAGI IJTIMOY-FALSAFIY TRANSFORMATSIYASI

*Jahongir Boybutayev*

*PhD, dotsent*

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi*

*Toshkent, O‘zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** radikalizm, radikallashuv, ekstremizm, terrorizm, zo‘ravonlik, kollektiv identiklik, siyosiy chetlashuv, mafkuraviy legitimatsiya, ijtimoiy transformatsiya, terrorizm profilaktikasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada radikalizmdan terrorizmgacha bo‘lgan jarayon zo‘ravonlikning ijtimoiy-falsafiy transformatsiyasi sifatida tahlil qilingan. Radikalizm, radikallashuv, ekstremizm va terrorizm tushunchalarining mazmun-mohiyati hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi

yoritilgan. Terrorizm mustaqil hodisa emas, balki radikal g'oyalarning ekstremistik faoliyat va tizimli zo'ravonlikka aylanishidan iborat murakkab ijtimoiy jarayon ekanligi asoslangan. Shuningdek, maqolada terrorizmning shakllanishida kollektiv identiklikning radikallasuvi, zo'ravonlikni legitimlashtirish va siyosiy chetlashuv jarayonlarining o'rni ochib berilgan.

---

## СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИКАЛИЗМА И ТЕРРОРИЗМА В КОНТЕКСТЕ НАСИЛИЯ

*Джахонгир Бойбутаев*

*PhD, доцент*

*Академия МВД Республики Узбекистан*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** радикализм, радикализация, экстремизм, терроризм, насилие, коллективная идентичность, политическое отчуждение, идеологическая легитимация, социальная трансформация, профилактика терроризма.

**Аннотация:** В данной статье процесс перехода от радикализма к терроризму анализируется как социально-философская трансформация насилия. Раскрываются сущность и содержание понятий радикализма, радикализации, экстремизма и терроризма, а также их взаимосвязь. Обосновывается, что терроризм является не самостоятельным явлением, а сложным социальным процессом превращения радикальных идей в экстремистскую деятельность и системное насилие. В статье также раскрывается роль процессов радикализации коллективной идентичности, легитимации насилия и политического отчуждения в формировании терроризма.

**Kirish.** Zamonaviy globallashuv va raqamlashuv sharoitida radikalizm, ekstremizm va terrorizm insoniyat xavfsizligiga tahdid solayotgan eng murakkab ijtimoiy hodisalardan biriga aylanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi mazkur fenomenlarning namoyon bo'lish shakllari, tarqalish mexanizmlari va ta'sir doirasini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Shu bilan birga, mazkur jarayonlar terrorizmni faqat uning tashqi ko'rinishi orqali emas, balki uni vujudga keltiruvchi ijtimoiy, madaniy va g'oyaviy omillar nuqtai nazaridan ham tahlil qilish zaruratini kuchaytirmoqda.

**Adabiyotlar sharxi.** Terrorizmni faqat alohida zo‘ravonlik harakati sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy-falsafiy transformatsiyaning yakuniy bosqichi sifatida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayon odatda radikal dunyoqarashning shakllanishi, uning ekstremistik g‘oya va amaliyotlarga aylanishi hamda oxir-oqibat terroristik zo‘ravonlik ko‘rinishida namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Shu nuqtai nazardan radikalizm ekstremizm va terrorizmning g‘oyaviy-aksiologik asosi sifatida maydonga chiqadi.

Vladimir Krasikov ta‘biri bilan aytganda: ““Radikal”, “radikalizm” tushunchalari – narsalarning asoslarini o‘zgartiruvchi – XVIII asr oxiridan boshlab faol Yevropa til amaliyotiga kirib keldi. Bu so‘z lotincha bo‘lsa-da, ijtimoiy diskursdagi zamonaviy ma‘nosi ingliz va fransuz tillaridan kelib chiqqan. “Radikal” so‘zining matematika, kimyo va biologiyada qo‘llanishini hisobga olmaganda, odamlarga nisbatan mavjud tartibga zid yoki unga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdid soluvchi tub ijtimoiy o‘zgarishlarga intiluvchilarni shunday ta‘riflaydilar. Shunga ko‘ra, “radikallashuv” ana shunday intilishning shakllanish jarayoni bo‘ladi” [1].

Muallif fikriga qo‘shilgan holda ta‘kidlash joizki, radikalizmni ekstremizm va terrorizmdan ajralgan holda emas, balki yagona ijtimoiy transformatsiya jarayonining dastlabki bosqichi sifatida ko‘rib chiqish zarur. Chunki “radikalizm” avvalo shaxs va guruh ongida mavjud ijtimoiy tartibni inkor etuvchi, uni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan dunyoqarashni shakllantiradi. Ushbu dunyoqarash murosa va plyuralizm tamoyillarini rad etib, voqelikni “do‘st-dushman”, “haq-nohaq” kabi qarama-qarshi kategoriyalar orqali qabul qilishga olib keladi. Natijada, radikal qarashlar ekstremistik g‘oya va amaliyotlarga aylanib, zo‘ravonlikni ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning qonuniy vositasi sifatida qabul qilish holatini vujudga keltiradi. Mazkur jarayonning eng yuqori va xavfli bosqichi terrorizm bo‘lib, unda zo‘ravonlik muayyan g‘oyaviy maqsadlarga erishish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu ma‘noda “radikalizm – ekstremizm – terrorizm” zanjiri zo‘ravonlikning ijtimoiy-falsafiy transformatsiyasini ifodalovchi yaxlit jarayon sifatida talqin qilinishi mumkin.

“Radikallashuv” tushunchasiga to‘liq ta‘rif berish qiyin, chunki bu tushuncha vaqt o‘tishi bilan sezilarli darajada o‘zgarib borgan. Dastlabki bosqichda u shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan radikal g‘oyalarni qabul qilish jarayoni sifatida ko‘rib chiqilgan. Bu g‘oyalar o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga zo‘ravonlik yo‘li bilan, jumladan terror orqali erishish mumkinligini anglash va qabul qilishni o‘z ichiga olgan [2].

Hozirga qadar “radikalizm” va “ekstremizm” atamalari (tushunchalari) bilan ifodalanadigan hodisalar majmuasini tadqiq etishning yagona talqini, kelishilgan ta‘riflari deyarli mavjud emas, uslubiy asosi ham ishlab chiqilmagan. Amerikalik mutaxassislar Remi Kross va Deyvid Snou ta‘kidlashicha, “radikalizm va radikallar haqidagi sotsiologik qarashlar ko‘pincha noaniq va

mavhum bo‘lgan... Bu konseptual noaniqlik, qisman, radikalizm va radikallarga ko‘pincha kontekstga qarab ta’rif berilishi bilan izohlanadi” [3].

**Muhokama va natijalar.** Radikalizm ekstremizmning yuzaga kelishi va tarqalishi uchun eng muhim shart-sharoit, uning g‘oyaviy va hissiy zamini hisoblanadi. Aynan radikalizmning u yoki bu turi ekstremistik qarashlar hamda amaliyotlarning o‘ziga xos modelini shakllantiradi, ularni tizimlashtiradi va quvvatlantiradi [3]. Demak, radikalizm ekstremizmning sababi emas, balki uning ehtimoliy manbai hisoblanadi, ekstremizm esa radikal g‘oyalarning zo‘ravonlik orqali amalga oshirishga yo‘naltirilgan shakli bo‘lib, terrorizm mazkur jarayonning institutsionallashtirilgan va eng keskin ko‘rinishidir.

Jamiyatning radikallasuvi – bu, avvalo, unda radikal g‘oyalarning tarqalishi bo‘lib, ular o‘z navbatida ko‘pincha ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarning “katalizatori”ga aylanadi [2]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, radikallasuvni faqat xavfli yoki destruktiv jarayon sifatida baholash to‘liq to‘g‘ri emas. Chunki tarixda ko‘plab ijtimoiy islohotlar, demokratik o‘zgarishlar va siyosiy transformatsiyalar ham dastlab radikal g‘oyalar sifatida maydonga chiqqan. Biroq radikal g‘oyalarning ijtimoiy ahamiyati ularning mazmuni va amalga oshirish usullariga bog‘liq. Agar radikal g‘oyalar ijtimoiy muammolarni huquqiy, siyosiy va demokratik mexanizmlar orqali hal etishga qaratilgan bo‘lsa, ular taraqqiyot va yangilanishning omiliga aylanishi mumkin. Aksincha, agar radikal qarashlar murosa, plyuralizm va qonun ustuvorligini inkor qilib, zo‘ravonlikni maqsadga erishishning yagona vositasi sifatida talqin qilsa, ular ekstremizm va terrorizm uchun g‘oyaviy zamin yaratadi.

Shu bois, radikallasuvni ijtimoiy-falsafiy jihatdan neytral jarayon sifatida baholash mumkin. Uning ijobiy yoki salbiy oqibatlariga olib kelishi radikal g‘oyalarning qadriyat yo‘nalishi, ularni tarqatish usullari hamda jamiyatning mazkur g‘oyalarga munosabati bilan belgilanadi. Demak, radikallasuv ijtimoiy transformatsiyaning boshlang‘ich bosqichi bo‘lsa, ekstremizm zo‘ravonlikni legitimlashtirish bosqichi, terrorizm esa ushbu jarayonning eng keskin va xavfli ko‘rinishi hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, radikalizmdan terrorizmgacha bo‘lgan jarayonni quyidagi jadval asosida tushuntirish o‘rinlidir.

**1-Jadval**

<b>Bosqich</b>	<b>Mohiyati</b>	<b>Asosiy xususiyati</b>
Radikal	Subyekt	Tub o‘zgarish tarafdori
Radikalizm	G‘oya	Mavjud tartibni inkor etish
Radikallasuv	Jarayon	Radikal g‘oyalarni ongga singishi
Ekstremizm	Faoliyat	Keskin va murosasiz harakat

Zo‘ravonlik	Vosita	Kuch ishlatishni maqbul usul sifatida qabul qilish
Terrorizm	Tizimli zo‘ravonlik	Qo‘rqitish orqali siyosiy yoki mafkuraviy maqsadga erishish

Aynan “zo‘ravonlikni legitimlashtirish” bosqichi radikalizmdan terrorizmga o‘tishdagi eng muhim ijtimoiy-falsafiy transformatsiya hisoblanadi. Terrorizm mustaqil hodisa emas, balki radikal g‘oyaning radikallasuv orqali ekstremistik amaliyotga, ekstremizmning esa tizimli zo‘ravonlikka aylanishidan iborat ijtimoiy-falsafiy transformatsiyaning yakuniy bosqichidir. Shu nuqtai nazardan, terrorizmni alohida hodisa sifatida emas, balki radikal g‘oyaning zo‘ravonlik orqali amaliylashuvining yakuniy bosqichi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Demak, terrorizmga qarshi kurash faqat uning oqibatlarini bartaraf etish bilan emas, balki radikallasuv jarayonlarini erta aniqlash va zo‘ravonlikni legitimlashtiruvchi g‘oyaviy omillarni bartaraf etish bilan ham bog‘liqdir.

Shu o‘rinda, Marta Krensho “Terrorizmning sabablari” (The Causes of Terrorism) deb nomlangan maqolasida terrorizmni tushunish uchun uning g‘oyaviy manbalari va radikallasuv jarayonlarini o‘rganish zarurligini, chunki terroristik faoliyat muayyan ijtimoiy va siyosiy sharoitlarda shakllanishi ta’kidlashga uringan holda “Ba’zi norozilik manbalarini hisobga olgan holda... terrorizm turli mafkuraviy e’tiqodlarga ega bo‘lgan kichik tashkilotlar uchun jozibador strategiya bo‘lib, ular o‘z ishiga e’tiborni jalb qilishni, hukumatni g‘azablantirishni, raqiblarini qo‘rqitishni, xayrixohlik uyg‘otishni, auditoriyani hayratda qoldirishni yoki dindorlarning unga ergashishini targ‘ib qilishni istaydi” [4] – deydi. Bunda Krensho terrorizmni to‘satdan paydo bo‘ladigan hodisa sifatida emas, balki uzoq davom etadigan radikallasuv jarayonining mahsuli sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, terrorizm muayyan shaxslarning tug‘ma xususiyati emas, balki guruh ichidagi sadoqat, birdamlik, qarama-qarshilik va izolyatsiya kabi ijtimoiy-psixologik omillarning asta-sekin kuchayishi natijasida shakllanadi.

Shu nuqtai nazardan terrorizmni radikalizmning oddiy davomi sifatida emas, balki radikal g‘oyalarning ekstremistik faoliyatga va keyinchalik tizimli zo‘ravonlikka transformatsiyalanishining yakuniy bosqichi sifatida baholash mumkin. Bu esa terrorizmning mohiyatini tushunishda uning tashqi ko‘rinishidan ko‘ra ichki ijtimoiy-falsafiy mexanizmlarini tahlil qilish muhimligini ko‘rsatadi.

Fotali Mogxaddam radikallasuv bir zumda yuz bermasligini, balki bosqichma-bosqich kechuvchi jarayon bo‘lib, shaxsning ekstremistik va terroristik faoliyatga jalb qilinishi ma’lum ijtimoiy-psixologik mexanizmlar orqali amalga oshishini ta’kidlaydi [5]. Uning “Terrorizm sari zinapoya: psixologik tadqiqot” (The Staircase to Terrorism: A Psychological Exploration) nomli

maqolasida ilgari surgan “zinapoya modeli” jamiyatdagi norozilik - adolatsizlik hissi - dushman obrazi - radikallashuv - terrorizm zanjiri ko‘rinishida yoritib beriladi.

“Radikallashuv jumbog‘i: mahalliy ekstremizmga empirik yondashuvlarning nazariy sintezi” (The Radicalization Puzzle: A Theoretical Synthesis of Empirical Approaches to Homegrown Extremism) nomli maqolada esa, radikallashuv jarayoni siyosiy norozilik, ijtimoiy chetlashuv, guruh ta’siri va mafkuraviy legitimatsiya kabi o‘zaro bog‘liq to‘rt omil orqali tahlil qilinadi [6].

Italiyalik sotsiolog va siyosatshunos olim Donatella Della Portaning ta’kidlashicha, radikalizm ko‘p hollarda muayyan mafkuraning mazmuni bilan emas, balki siyosiy ishtirok imkoniyatlarining cheklanishi, davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotning zaiflashishi natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy transformatsiya mahsuli hisoblanadi [7]. Mazkur yondashuv radikallashuv va terrorizmga qarshi kurashda faqat uning tashqi namoyon bo‘lish shakllariga emas, balki uni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy, ma’naviy va mafkuraviy omillarga ham alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda ham ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishda profilaktik va ma’rifiy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda: “O‘zbekiston terrorizm, ekstremizm va radikalizm mafkurasiga qarshi kurash borasida hamisha prinsipial pozitsiyaga ega bo‘lib kelgan. Bunday xavf-xatarlarga qarshi faqat kuch ishlatish usullari bilan emas, balki birinchi navbatda, ayniqsa yoshlar o‘rtasida, zo‘ravonlikni keltirib chiqaradigan jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish lozim” [8].

Ushbu yondashuv Della Portaning terrorizmning ijtimoiy-falsafiy ildizlari haqidagi qarashlari bilan hamohangdir. Zero, muallif terrorizmning shakllanishida kollektiv identiklikning radikallashuvini muhim omil sifatida baholaydi. Bunday holatda jamiyat “biz” va “ular” kabi qarama-qarshi toifalarga ajratilib, “biz haqmiz – ular nohaq”, “biz qurbonmiz – ular dushman” kabi qarashlar shakllanadi. Natijada zo‘ravonlik axloqiy va mafkuraviy jihatdan oqlana boshlaydi hamda ijtimoiy munosabatlarda murosa va muloqot o‘rnini qarama-qarshilik egallaydi. Shu ma’noda Prezident tomonidan ilgari surilgan “jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyili nafaqat ekstremistik g‘oyalarga qarshi kurashish, balki yoshlar ongida radikal kollektiv identiklikning shakllanishi, jamiyatning “biz” va “ular” qarama-qarshiligi asosida bo‘linishi hamda zo‘ravonlikni oqlovchi mafkuraviy qarashlarning tarqalishining oldini olishga qaratilgan muhim profilaktik mexanizm hisoblanadi.

Della Porta fikricha, terrorizm aksariyat hollarda alohida shaxs yoki guruhning mustaqil harakati emas, balki davlat va radikal guruhlar o‘rtasida shakllangan zo‘ravonlikning kuchayib borishi hamda o‘zaro radikallashuv spiralining mahsulidir. Shuning uchun ham terrorizmga qarshi

samarali kurash uning oqibatlarini bartaraf etish bilan cheklanmasdan, radikallashuvga olib keluvchi ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy omillarni barvaqt aniqlash va ularni bartaraf etishni taqozo etadi. Shunday qilib, Della Porta konsepsiyasida terrorizmga olib boruvchi jarayon quyidagi mantiqiy zanjir orqali izohlanadi: radikalizm – kollektiv identiklikning shakllanishi – siyosiy chetlashuv – zo‘ravonlikni legitimatsiya qilish – uyushgan siyosiy zo‘ravonlik – terrorizm. Mazkur yondashuv terrorizmni faqat mafkuraviy hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida vujudga keluvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy transformatsiya sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Shu bois terrorizmni mustaqil hodisa sifatida emas, balki radikal g‘oyalarning ekstremistik amaliyot va tizimli zo‘ravonlikka aylanishidan iborat ijtimoiy-falsafiy transformatsiyaning yakuniy bosqichi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa qilib aytganda:** Birinchidan, radikalizm, ekstremizm va terrorizm bir-biridan mustaqil hodisalar emas, balki zo‘ravonlikning bosqichma-bosqich ijtimoiy-falsafiy transformatsiyasini ifodalovchi o‘zaro bog‘liq jarayonlar hisoblanadi.

Ikkinchidan, radikalizmni terrorizmning bevosita sababi emas, balki uning ehtimoliy g‘oyaviy va aksiologik manbai sifatida baholash mumkin. Ekstremizm esa, mazkur g‘oyalarning amaliyotga ko‘chishi va zo‘ravonlikni legitimlashtirish bosqichidir.

Uchinchidan, terrorizm ko‘p hollarda yakka shaxsning irodasi yoki muayyan mafkuraning mazmuni bilan emas, balki ijtimoiy adolatsizlik hissi, siyosiy chetlashuv, kollektiv identiklikning radikallashuvi, guruh ta’siri va mafkuraviy legitimatsiya kabi omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Shu bois terrorizmni faqat xavfsizlik muammosi sifatida emas, balki ijtimoiy, siyosiy, psixologik va madaniy jarayonlarning mahsuli bo‘lgan murakkab fenomen sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

To‘rtinchidan, terrorizmga olib boruvchi jarayonni “radikalizm – radikallashuv – ekstremizm – zo‘ravonlikni legitimlashtirish – terrorizm” zanjiri orqali tushuntirish mumkin. Aynan zo‘ravonlikni axloqiy va mafkuraviy jihatdan oqlash bosqichi mazkur transformatsiyaning hal qiluvchi nuqtasi hisoblanadi. Chunki ushbu bosqichda murosa va muloqot madaniyati o‘rnini qarama-qarshilik va dushman obrazi egallaydi.

Beshinchidan, terrorizmga qarshi samarali kurash uning oqibatlarini emas, balki radikallashuvga olib keluvchi ijtimoiy va ma'naviy omillarni bartaraf etishni taqozo etadi. Shu jihatdan, “jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyili terrorizm profilaktikasining muhim ijtimoiy-falsafiy asosi hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Владимир Иванович Красиков (2024). Онлайн-радикализация молодежи: предпосылки и механизмы. Вестник Томского государственного университета. Философия. Социология. Политология, (80), – С. 110.
2. Палий В. М., Гришай Е. В., Людкевич Ю. Н. Радикализация: понятие, критерии оценки, причины // Вестник Московского университета МВД России. № 2 / 2023. – С. 159.
3. Осипов В.Г. (2018). Радикализм, экстремизм и терроризм. К методологии проблематизации. Социологический альманах, (9), – С. 52.
4. Martha Crenshaw. The Causes of Terrorism. // Comparative Politics, Vol. 13, No. 4. (Jul., 1981), – P. 396.
5. Moghaddam, F. M. (2005). The Staircase to Terrorism: A Psychological Exploration. // American Psychologist, 60(2), 161–169.
6. Hafez, M., & Mullins, C. (2015). The Radicalization Puzzle: A Theoretical Synthesis of Empirical Approaches to Homegrown Extremism. // Studies in Conflict & Terrorism, 38, - pp. 958-975.
7. DONATELLA DELLA PORTA. Social Movements, Political Violence, and the State: A Comparative Analysis of Italy and Germany. Cambridge University Press; 1995. - pp. 188-194.
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Афғонистон бўйича “Тинчлик жараёни, хавфсизлик соҳасида ҳамкорлик ва минтақавий шериклик” мавзусида ўтказилган халқаро конференциядаги нутқи. <https://president.uz/uz/lists/view/1601>